

2017 yil yanvar-dekabr

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2017 yil yanvar-dekabr oylarida 1096.6 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 257,8 mln. AQSh dollarini va import 838,8 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldos -580,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.


Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73,7 foizga va xizmatlar eksporti 18,6 foizga o'sdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari 98,2 mln AQSh dollarini tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari hajmining 76.6 foizini tashkil etdi.


Viloyatda kichir tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2017-yil yanvar-dekabr oylarida 717,1 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 212,6 mln. AQSh dollarini va import 504,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Eksport



- Paxta
- Qora va rangli metallar
- Oziq-ovqat
- Boshqalar

Import



- Kimyo mahsulotlari
- Mashina va asbob uskunalar
- Xizmatlar



Eksport va importda sohalar ulushlari


Import tarkibining umumiy hajmidan 49,8 foizini mashina va asbob-uskunalar, 24,6 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Xizmatlar eksporti eksport tarkibining umumiy hajmidan 12,2 foizini tashkil qildi, bunda transport xizmati 32,2 foizni va sa-

farlar 27.9 foizni tashkil etdi.

Importda eng katta ulushni, ya'ni 49,8 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 6,6 foizlik natija bilan qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ijobiy ko'rsatkichi (49,8 foiz) eksport hajmining deyarli yarmini tashkil etdi.



2017 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosini -580,9 mln. AQSh dollari tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan -34,6 mln. AQSh dollari va boshqa davlatlar bilan -546,4 mln. AQSh dollari tashkil etdi.


2017 yilning yanvar-dekabrida viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:

| | <i>mln.dollar</i> | <i>o'tgan yilga nisbatan, %</i> | <i>umumiy hajmga nisbatan, %</i> |
|---|-------------------|---------------------------------|----------------------------------|
| Eksport | 257,8 | 99,5 | 100 |
| paxta tolasi | 2,4 | - | 0,9 |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 128,3 | 79,9 | 49,8 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar | 7 | 98,7 | 2,7 |
| qora va rangli metallar | 8,8 | 75,7 | 3,4 |
| mashina va asbob-uskunalar | 16,9 | 173,7 | 6,6 |
| xizmatlar | 31,4 | 118,6 | 12,2 |
| boshqalar | 63 | 144,2 | 24,4 |
| Import | 838,8 | 116,9 | 100 |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 91,7 | 99,2 | 10,9 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar | 205,8 | 94,2 | 24,6 |
| energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 2,2 | 88,9 | 0,3 |
| qora va rangli metallar | 33 | 117,8 | 3,9 |
| mashina va asbob-uskunalar | 418,1 | 134,2 | 49,8 |
| xizmatlar | 4,8 | 58,5 | 0,6 |
| boshqalar | 83,2 | 147,4 | 9,9 |

2017-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 27,9 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Frantsiya, AQSh, Italiya davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 48,5 foizni tashkil qildi.

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 98,2 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 69,7 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 28,8 foizni sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61,8 foizni tashkil qildi), 33,3 foizni mevalar (78,0 foizni), 36,1 foizni uzum (71,0 foizni) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 45,2 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (84,0 foizni) tashkil qiladi.



Tashqi savdo aylanmasida davlatlar ulushi, foizda

Tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkor davlatlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 10,4 foiz), Rossiya (13,9 foiz), Afg'oniston (1,5 foiz), Xitoy (13,1 foiz), Turkiya (11,7 foiz), Qirg'iziston (1,0 foiz) va Iroq (0,6 foiz) hisoblanadi.